



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI NURAFSHON SHAHAR HOKIMINING FARMOYISHI

Nurafshon sh., Toshkent yo'li ko'chasi, 55a uy

2022 йил «30» май

113-10-213-F/22

Нурафшон шаҳар ҳокимлиги

Mablag' ajratish to'g'risida

Budjet kodeksiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlar daftari"ni yuritish orqali yoshlarning muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha 2021-yil 28-apreldagi 250-sonli, "O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2021-yil 23-iyuldagi 450-sonli qarorlari va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi shahar Vasiylik kengashining 2022-yil 17-maydagi 9-sonli yig'ilish bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek sektor rahbarlarining tavsiyasini inobatga olib:

1. "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi shahar Vasiylik kengashining 2022-yil 17-maydagi 9-sonli yig'ilish bayoni va sektor rahbarlarining tavsiyasi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2021-yil "Yoshlar daftari" jamg'armasida (3050228604274013332107018) shakllangan mablag' hisobidan "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida:

- "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi shahar Vasiylik kengashining 2022-yil 17-maydagi 9-sonli yig'ilish bayoni qaroriga asosan "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini o'zi band qilishga zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish uchun 1-ilovaga muvofiq 74 000 000 (yetmish to'rt million) so'm mablag';

- "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi shahar Vasiylik kengashining 2022-yil 17-maydagi 9-sonli yig'ilish bayoni qaroriga asosan "Yoshlar daftari" ro'yxatida turuvchi yoshlarni mamlakatimizdagi professional va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan yoshlarni to'lov-kontrakt so'mmasining 50 foizgacha, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravaridan oshmagan miqdorida to'lab berish uchun 2-ilovaga muvofiq 32 847 324 (o'ttiz ikki million sakkiz yuz qirq yeti ming uch yuz yigirma to'rt) so'm mablag';

- "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi shahar Vasiylik kengashining 2022-yil 17-maydagi 9-sonli yig'ilish bayoni qaroriga asosan "Yoshlar daftari" ro'yxatida turuvchi yoshlarni haydovchilik va qayta tayyorlov kurslarida o'qitish xarajatlarini bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha to'lash uchun 3-ilovaga muvofiq 1 080 000 (bir million sakson ming) so'm mablag';

- "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi shahar Vasiylik

kengashining 2022-yil 17-maydagi 9-sonli yig'ilish bayoni qaroriga asosan "Yoshlar daftari" ro'yxatida turgan 9 nafar yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini o'zi band qilishga zarur bo'lgan parrandalarni yetishtirish uskunasi (inkubator)larni xarid qilish uchun talabgorlar ro'yxati 4-ilovaga muvofiq 19 000 000 (o'n to'qqiz million)so'm mablag';

-"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi shahar Vasiylik kengashining 2022-yil 17-maydagi 9-sonli yig'ilish bayoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi "Moddiy yordam va ko'makka muhtojlarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 250-sonli qarorga asosan tasdiqlangan Nizomning 4-bob 53-bandida yoshlarning iste'dodlarini qo'llab-quvvatlash, besh muhim tashabbusni ro'yobga chiqarish va uning doirasidagi tadbirlarni "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirish ko'rsatilgan. Shunga muvofiq besh muhim tashabbus doirasida "DXX kubok" gida g'olib bo'lgan yoshlarni taqdirlash uchun sovg'alar ro'yxati 5-ilovaga muvofiq 39 800 000 (o'ttiz to'qqiz million sakkiz yuzming) so'm mablag' jami 166 727 324 (bir yuz oltmish olti million yeti yuz yigirma yeti ming uch yuz yigirma to'rt) so'm mablag' shahar hokimligiga (305022860274017109601018001) yo'naltirilsin.

3. Yoshlar ishlari agentligi shahar bo'limiga (B.Abduqodirov) ajratilgan mablag'lar hisobiga "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolarga ko'rsatilgan yordamlar yuzasidan Xalq deputatlari Nurafshon shahar Kengashi axborot kiritish va hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish vazifasi yuklatilsin.

4. Shahar g'aznachilik bo'linmasi (L.Boxodirov) shahar hokimligi bosh hisobchisi (I.Sabirova) ajratilgan mablag'larni belgilangan tartibda o'tkazilishini ta'minlasin.

5. Shahar hokimligi moliya bo'limi (M.Miryusupov) ajratilgan mablag'lar bo'yicha xarajatlar smetasida o'zgarishlarni inobatga olsin.


6. Yoshlar ishlari agentligi shahar bo'limi (B.Abduqodirov), mas'ul sektor kotiblari, mahalla fuqarolari yig'ini raislari "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga berilgan o'zini o'zi band qilishga zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini yetkazib berishni hamda samarali foydalanishini nazoratga olsin.

7. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o'rinbosari K.Alkarov va shahar hokimining o'rinbosari N.Kulbekova zimmasiga yuklansin.

Shahar hokimi



M. Салиев



Nurafshon shahar hokimining
2022 yil 30 maydagi
113-10-213-F/22-son farmoyishiga
5-ilova

“Mini futbol” va “Futbol” bo'yicha shahar bosqichida g'olib bo'lgan yoshlarni taqdirlash uchun talab etiladigan sovg'alar

TAKLIFI

№	Sport turi	Sovg'alar nomi va soni	Bir dona sovg'ani taxminiy narxi	Jami sovg'ani taxminiy narxi
1	“Mini futbol” musobaqasini o'tkazish	1. Futbolka, shortik (20 dona) 2. Futbol topi (30 dona) 3. Stol tennisi jamlanmasi (1 dona)	200 000 300 000 3 000 000	4 000 000 9 000 000 3 000 000
2	“Futbol” musobaqasini o'tkazish	1. Futbolka, shortik (32 dona) 2. Futbol topi (48 dona) 3. Stol tennisi jamlanmasi 1 dona	200 000 300 000 3 000 000	6 400 000 14 400 000 3 000 000
Jami				39 800 000